

**ERKIN A'ZAM HIKOYASIDA LEKSIK-STILISTIK VOSITALAR:  
VARVARIZM, VULGARIZM, SHEVA VA ARGON SO'ZLARNING  
QO'LLANILISHI ("Anoyining jaydari olmasi" hikoyasi misolida)**

*Erbutayeva Shalola Utkirovna*

*Samarqand davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Akramqulova Shirina G'iyosiddin qizi*

*Samarqand davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida qo'llangan leksik-stilistik vositalar - varvarizm, vulgarizm, sheva so'zlari va argonlar – ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Asarda har bir qahramonning individual nutq xususiyati orqali uning ijtimoiy kelib chiqishi, hayot tarzi va ruhiy olami ochib berilishi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijasida yozuvchining tilshunoslik jihatidan ustakorligi hamda o'zbek adabiyotidagi uslubiy boylik yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

*Kalit so'zlar:* varvarizm, vulgarizm, argon, sheva, leksik stilistika, Erkin A'zam, o'zbek nasri, qahramon nutqi, individual uslub.

**ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА В РАССКАЗЕ ЭРКИНА  
АЗАМА: УПОТРЕБЛЕНИЕ ВАРВАРИЗМОВ, ВУЛЬГАРИЗМОВ,  
ДИАЛЕКТИЗМОВ И АРГО (На примере рассказа «Простое яблоко Анной»)**

*Эрбутаева Шалола Уткировна*

*Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы  
Самаркандского государственного педагогического института,  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам.*

*Акрамкулова Ширина Гиясиддин кизи*

*Студентка направления узбекского языка и литературы*

*Самаркандского государственного педагогического института*

*Аннотация.* В данной статье с научной точки зрения анализируются лексико-стилистические средства — варваризмы, вульгаризмы, диалектные слова и аргот, использованные в рассказе «Простое яблоко Анойи» известного представителя узбекской литературы Эркина Азама. Показано, что через индивидуальные речевые особенности каждого персонажа раскрываются его социальное происхождение, образ жизни и внутренний мир. В результате исследования более отчетливо проявляется языковое мастерство писателя и стилистическое богатство узбекской литературы.

*Ключевые слова:* варваризм, вульгаризм, аргот, диалект, лексическая стилистика, Эркин Азам, узбекская проза, речь персонажа, индивидуальный стиль.

**LEXICAL-STYLISTIC DEVICES IN ERKIN AZAM'S STORY: THE USE OF BARBARISMS, VULGARISMS, DIALECT WORDS, AND ARGOT (Based on the story "Anoyi's simple Apple")**

*Erbutayeva Shalola Utkirovna*

*Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature,  
Samarkand State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological  
Sciences*

*Akramkulova Shirina Giyosiddin qizi*

*Student of Uzbek Language and Literature, Samarkand State Pedagogical Institute.*

*Abstract.* This article provides a scientific analysis of lexical-stylistic devices—barbarisms, vulgarisms, dialect words, and argot—used in the story “Anoyi’s Simple Apple” by the prominent Uzbek writer Erkin Azam. It is shown that the individual speech characteristics of each character reveal their social background, lifestyle, and

*inner world. The results of the study highlight the writer's linguistic mastery and further demonstrate the stylistic richness of Uzbek literature.*

**Keywords:** *barbarism, vulgarism, argot, dialect, lexical stylistics, Erkin Azam, Uzbek prose, character speech, individual style.*

**Kirish.** Badiiy adabiyotda til - yozuvchi mahoratining asosiy ko'zgusi. Buyuk adiblar til vositalaridan nafaqat badiiy go'zallik yaratish, balki qahramonlarning ijtimoiy muhitini, ruhiy holatini va hayot tarzini aks ettirish uchun ham foydalanadilar. O'zbek adabiyotining yirik vakili Erkin A'zam o'zining serqirra ijodida ana shu an'anani davom ettirgan holda, leksik-stilistik vositalarni o'ta noziklik bilan qo'llaydi.

“Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi<sup>1</sup> Erkin A'zamning eng ko'zga ko'ringan asarlaridan biri bo'lib, unda o'zbek hayotining turli qatlamlaridan chiqqan qahramonlar voqealar rishtasida bir-birini to'ldiradi. Hikoyaning eng muhim stilistik xususiyati shundaki, yozuvchi har bir obrazning nutqini uning ijtimoiy kelib chiqishiga, kasbi va hayot yo'liga mos ravishda shakllantirgan.

Ushbu maqolaning maqsadi mazkur hikoyada qo'llangan leksik-stilistik vositalarni – xususan, varvarizmlar, vulgarizmlar, sheva so'zlari va argonlarni – ilmiy jihatdan tahlil etish, ularning badiiy-estetik funksiyasini ochib berish va yozuvchining leksik mahoratini ko'rsatishdan iborat. Metodologik asos sifatida leksik-stilistik tahlil, qiyosiy-tipologik va kontekstual usullardan foydalanildi.<sup>2</sup>

### **Asosiy qism.**

#### **1. Qahramon xarakterining ochilishi va nutqiy individuallik**

Hikoyada asosiy qahramon Ramazon o'zining soddadilligi, o'yinqaroqligi, mehtibonligi va bolalardek beg'uborligi bilan ko'zga tashlanadi. U haqiqiy do'stlikning timsoli sifatida gavgdalanadi. Yozuvchi bu xarakterni ochib berishda faqat voqealar bayoniga tayanmay, balki qahramonning o'ziga xos nutq tarziga alohida e'tibor qaratgan. Har bir qahramon o'ziga xos leksik qatlam va nutq uslubiga ega bo'lib, bu ularning individual dunyosini oydinlashtiradi.

#### **2. Varvarizmlarning qo'llanishi**

<sup>1</sup>A'zam E. Anoyining jaydari olmasi // Erkin A'zam. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 87-134.

<sup>2</sup>Yo'ldoshev Q. So'z san'ati sirlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 45.

Varvarizm – chet el tilidan o‘z grammatik qurilishini saqlab o‘zlashtirilmagan holda kirib kelgan so‘z yoki iboralar.<sup>1</sup> Tilshunoslikda varvarizmlar ko‘pincha muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va qahramon shaxsiyatini belgilashda qo‘llaniladi.

Erkin A‘zam bu hikoyada varvarizmlardan ustalik bilan foydalangan. Ramazon Barnaulda harbiy xizmatda bo‘lgan paytida bir qancha ruscha so‘zlarni o‘zlashtirib, ularni har kuni o‘z nutqiga aralashtirib gapirish odatini kasb etadi.<sup>2</sup> Masalan, do‘sti soqol olayotgan bir paytda Ramazon: “E, salaga, zelen!” – deydi. Bu ibora rus tilida “Ey, tajribasiz shogird!” ma‘nosini anglatadi. Bu birgina ibora orqali yozuvchi Ramazonning Barnaulda o‘tkazgan xizmat yillarini, o‘sha muhitdan singib qolgan nutq xususiyatlarini jonli va ishonchli tarzda tasvirlaydi.

Bundan tashqari, asarda “grajdanin”<sup>3</sup>, “chest bermoq”, “padrushka”, “maladets” kabi varvarizmlar ham qo‘llanilgan. “Grajdanin” so‘zi dastlab sudyachi ayol tomonidan ishlatiladi. Ramazon sudyaga “opa” deb murojaat qilganida, sudyachi ayol: “Men opa emasman, grajdaninman!” – deb ta‘kidlaydi. Bu so‘zning mazkur o‘rinda qo‘llanishi tarixiy jihatdan to‘liq asoslangandir.<sup>4</sup>

“Maladets” so‘zi esa Toshkentlik kallakesar Tosh nomli obraz tilidan berilgan.<sup>5</sup> Bu so‘z yosh va o‘rta avlod toshkentliklarning kundalik nutqida keng tarqalgan bo‘lib, u orqali yozuvchi Tosh obrazining shahar muhiti bilan aloqasini, uning nutq portretini aniq belgilaydi.

### 3. Sheva so‘zlaridan foydalanish.

Sheva so‘zlari – biron-bir hududda yashovchi aholining kundalik nutqida qo‘llaniladigan, adabiy tilda umumlashmagan leksik birliklar. Badiiy adabiyotda sheva so‘zlar qahramonning kelib chiqishini, uning o‘sib-ulg‘aygan muhitini, mintaqaviy mentalitetini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

<sup>1</sup>Varvarizm – boshqa tildan o‘zlashtirilgan, lekin grammatik jihatdan to‘liq assimilyatsiya bo‘lmagan so‘z yoki ibora. Qarang: Hojiyev A. Lingvistik terminlar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 112.

<sup>2</sup>Ramazonning Barnauldagi harbiy xizmat davrida o‘rgangan ruscha so‘zlarni kundalik nutqiga aralashtirib gapirish odati – tilshunoslikda makaronik nutq (macaronic speech) deb ataluvchi hodisaning yorqin namunasidir. Qarang: Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 203.

<sup>3</sup>“Grajdanin” so‘zi rus tilida (гражданин) “fuqaro” ma‘nosini anglatadi. Sovet huquqiy tizimida bu so‘z rasmiy murojaat shakllaridan biri bo‘lib, odatda sud va militsiya xodimlari tomonidan qo‘llanilgan. Qarang: Mahmudov N. O‘zbek adabiy tili uslublari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – B. 78.

<sup>4</sup>Sovet davrida “grajdanin” terminini qo‘llash rasmiy siyosat darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu so‘zning ishlatilishi faqat til hodisasi bo‘lmay, balki ma‘muriy-mafkuraviy ramz hamdir. Qarang: Rasulov R. O‘zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 156.

<sup>5</sup>“Maladets” (молодец) – rus tilida “barakalla”, “yaxshi bola” ma‘nolarini anglatuvchi maqtov so‘zi. Toshkent shahar nutqida keng qo‘llaniladigan bu so‘z hozirgi kunda ham yoshlar orasida muomalada.

Tosh Toshkentlik bo'lganligi sababli, yozuvchi uni Toshkent shevasida so'zlatadi.<sup>1</sup> Uning nutqidagi "o'qivossanlarmi", "o'qib bo'llaring-de", "jaa anaqa-ku" singari iboralar Toshkent shahar shevasining tipik namunalari hisoblanadi. Bu iboralar Tosh obrazini hududiy jihatdan lokalizatsiya qilish bilan birga, uning ijtimoiy qatlami va muloqot madaniyatini ham ko'rsatadi.

Ramazonning nutqi esa Boysun shevasiga xos xususiyatlar bilan to'ldirilgan.<sup>2</sup> "Qilib edim", "tug'ilib edim", "ena", "jo'ra" kabi so'z va iboralar Surhondaryo viloyatining Boysun tumaniga xos sheva belgilarini aks ettiradi. Bu orqali yozuvchi nafaqat qahramonning geografik kelib chiqishini ko'rsatadi, balki uning soddadil, safdil qishloq yigiti ekanini ham ta'sirchan tarzda ifodalaydi.

#### **4. Vulgarizmning badiiy funksiyasi.**

Vulgarizm — adabiy til me'yoridan tashqaridagi qo'pol, ba'zan hijolatli deb hisoblanadigan so'zlar.<sup>3</sup> Badiiy adabiyotda vulgarizmlar asosan emotsional kuchaytirishni, qahramonning his-hayajonini to'g'ridan-to'g'ri ifodalashni ta'minlaydi.

Hikoyada faqat bitta vulgarizm qayd etilgan: bu "o'l-e!" so'zidir.<sup>4</sup> Mazkur ifoda do'stning nohaq qamalib ketganini eshitgan Ramazonning og'zidan chiqadi: "O'l-e, Shunaqa ham soda, anoyi bo'lasanmi?!" Bu vulgarizm voqea baxtsizligini emas, qahramonning samimiy larzalanishini, dardi ichiga sig'may ketishini ifodalaydi. Yozuvchi ushbu so'zni o'ta o'ylangan tarzda, aniq bir emotsional kulminatsiya nuqtasida qo'llagan. Bir dona vulgarizmning bunday mukammal joylashtirilishi yozuvchining leksik tejankorlik mahoratini ko'rsatadi.

#### **5. Argonlarning qo'llanishi va semantik tahlili.**

Argon (jargon) – ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki kasb vakillari tomonidan qo'llaniladigan maxsus leksik qatlam.<sup>5</sup> Argon so'zlar ko'pincha guruh a'zolarini boshqa

<sup>1</sup>Toshkent shevasi haqida batafsil: Shoabdurahmonov Sh. va boshq. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B. 201-245.

<sup>2</sup>Boysun shevasi Surhondaryo viloyatiga xos janubiy o'zbek shevalari guruhiga kiradi. Bu shevada "edim" yordamchi fe'lining qo'llanishi, shuningdek "ena" (ona), "jo'ra" (do'st) kabi so'zlar xarakterlidir. Qarang: Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1979. – B. 289.

<sup>3</sup>Vulgarizm – adabiy til me'yoridan tashqaridagi, ko'pincha qo'pol hisoblangan so'zlar. Ular badiiy adabiyotda asosan qahramonning his-hayajonini kuchaytirish, uning ijtimoiy muhitini ko'rsatish uchun qo'llanadi. Qarang: Hojiyev A. Lingvistik terminlar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 98.

<sup>4</sup>"O'l-e!" ifodasi o'zbek xalq tilidagi emotsional hayrat bildiruvchi undovli gaplar sirasiga kiradi. Bu iforada haqiqiy o'lim tilagi emas, hayrat va qayg'u his-tuyg'ulari aks etadi.

<sup>5</sup>Argon (jargon) – ma'lum ijtimoiy yoki kasbiy guruh a'zolari tomonidan qo'llaniladigan maxsus leksik qatlam. Qarang: Qodirov P. Erkin A'zamning nasriy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. – B. 67.

odamlardan ajratib turish, o'z dunyosini o'zgalardan himoya qilish yoki shu guruhga xos mentalitetni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Asarda ikki xil argon qatlami ko'zga tashlanadi. Birinchisi – rasmiy (huquqiy-ma'muriy) argon: “chayqovchi” va “chayqovchilik” atamaları. Ushbu so'zlar dastlab sudyachi ayol tomonidan Ramazonga nisbatan qo'llaniladi.<sup>1</sup> Ramazon o'z navbatida bu so'zlarning ma'nosini tushunmaydi ham, bu esa uning beg'uborligini, tizimdan uzoqligini yanada ta'sirchan qilib ko'rsatadi.

Ikkinchi qatlam – Ramazon va uning do'sti o'rtasidagi maxsus shaxsiy til.<sup>2</sup> “Pulyutar” (taksi), “uch tiyinlik” (tramvay), “registron” (restoran) kabi so'zlar faqat ular ikkoviga tushunarli bo'lgan o'ziga xos kriptolekt – yashirin til – namunalaridir. Bu argonlar ikki do'stning o'zaro yaqinligini, o'rtalarida yillar davomida shakllanib qolgan maxsus kommunikativ kodini ifodalaydi. Yozuvchi bu vosita orqali do'stlik tuyg'usini nafaqat tasvirlab, balki lingvistik jihatdan ham modellashtirib bergan.

Erkin A'zamning “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi leksik-stilistik jihatdan o'ta boy va mukammal asar sifatida o'zbek nasri tajribasida muhim o'rin tutadi.<sup>3</sup> Tahlil shuni ko'rsatadiki, yozuvchi varvarizmlar, vulgarizm, sheva so'zlari va argonlarni tasodifiy emas, balki aniq badiiy maqsad bilan qo'llagan.

1-jadval. Hikoyada qo'llangan leksik-stilistik vositalar tasnifi

Leksik tur	So'z/ibora	Ishlatilgan obraz	Funksiyasi
Varvarizm	salaga, zelen	Ramazon	Harbiy xizmat davri ta'sirini ko'rsatish
Varvarizm	grajdanin	Sudyachi ayol	Sovet rasmiy tilini aks ettirish
Sheva unsuri	o'qivossanlarmi, jaa anaqa-ku	Tosh	Toshkent geografik identifikatsiyasi
Sheva unsuri	ena, jo'ra, qilib edim	Ramazon	Boysun kelib chiqishini ko'rsatish
Vulgarizm	o'l-e!	Ramazon	Emotsional kulminatsiyani ifodalash
Argon (rasmiy)	chayqovchi, chayqovchilik	Sudyachi ayol	Sovet huquqiy terminologiyasi
Argon (shaxsiy)	plyutor, uch tiyinlik, registron		Do'stlik intimligi va maxsus kodi

1-jadval. Hikoyada qo'llangan leksik-stilistik vositalar tasnifi

<sup>1</sup>Sovet davrida “chayqovchilik” atamasi spekulatsiya (tovarni arzon sotib olib, qimmatga sotish) bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan rasmiy ravishda qo'llangan va jinoiy javobgarlikka tortilgan. Jinoyat kodeksi, 154-modda.

<sup>2</sup>Do'stlar o'rtasidagi maxsus til (kriptolekt yoki idiolekt) haqida: Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 178. Bunday shaxsiy kod tizimi psixolingvistikada "in-group language" deb ham ataladi.

<sup>3</sup>Erkin A'zamning leksik mahorati haqida kengroq: Qodirov P. Erkin A'zamning nasriy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. – B. 102-115.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi: birinchidan, har bir qahramon o'ziga xos nutq tarziga ega bo'lib, bu uning ijtimoiy kelib chiqishini, hududiy ildizlarini va hayot tajribasini aynan aks ettiradi. Ikkinchidan, varvarizmlar matnda tarixiy-ijtimoiy reallik (Sovet davri) ni qayta yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, sheva so'zlari qahramonlarning geografik identifikatsiyasini ta'minlaydi. To'rtinchidan, vulgarizmning yagona va aniq o'rinda qo'llanishi yozuvchining leksik tejamkorligini namoyon etadi. Beshinchidan, argonlar nafaqat qahramonlarning ijtimoiy muhitini, balki o'zaro munosabatlarining chuqurligini ham ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Erkin A'zam til vositalarini nafaqat badiiy bezak sifatida, balki qahramon psixologiyasini, davr ruhini va ijtimoiy muhitni aks ettirishning qudratli omili sifatida qo'llaydi. Bu esa adibning o'zbek adabiyotidagi o'rni va leksik mahoratining yanada chuqurroq tadqiq etilishini taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A'zam E. Anoyining jaydari olmasi // Erkin A'zam. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 87-134.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. – 320 b.
3. Mahmudov N. O'zbek adabiy tili uslublari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 248 b.
4. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2003. – 412 b.
5. Qodirov P. Erkin A'zamning nasriy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. – 178 b.
6. Rasulov R. O'zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: Fan, 1995. – 286 b.
7. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 348 b.
8. Yo'ldoshev Q. So'z san'ati sirlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 192 b.